

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|--------------------|
| R.K.Boyqo'zieva | |
| Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari | 230 |
| N.V.Nosirov | |
| Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetentligini axborotlashgan ta'lim muhitida takomillashtirish | 234 |
| G.Z.Ganiyeva | |
| Ingliz tilidagi toponimlarni izohlashda leksikografik tamoyillar (buyuk britaniya va amerika joy nomlari lug'atlari misolida) | 238 |
| Z.K.Abidova | |
| Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish | 244 |
| R.I.Madaliyev | |
| Talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish texnologiyasi | 248 |
| M.X.Baybaeva, I.A.Imomov | |
| Talabalarning xulq atvoridagi nizoli vaziyatlarni pedagogik tashxis etishning sinergetik-tuzilmasining talqini | 252 |
| I.A.Imomov | |
| Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lim jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili | 256 |
| L.M.Sokolova | |
| Farg'ona vodiysi hunarmandlari postindustrial dunyoda | 261 |
| S.O'Boybo'riyeva | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari | 268 |
| Sh.X.Xankeldiyev, D.K.Karimov | |
| Yosh akrobatlarning xarakter-texnik tayyorgarligi metodologiyasining kumulyativ samaradorligini o'rganish | 272 |
| | <u>IQTISODIYOT</u> |
| X.X.Bozarov | |
| Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlari | 277 |
| | <u>FALSAFA</u> |
| Z.A.Boboyeva | |
| San'atning badiiy adabiyot turi uzluksiz ma'naviy tarbiyaning muhim omili | 283 |
| I.A.Xo'jaxonov | |
| Huquqiy targ'ibot jarayonida ommaviy axborot vositalarining o'rni | 288 |
| U.M.Mamajonov | |
| Musiqqa madaniyati darslarida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini rivojlantirishning muhim shartlari | 293 |
| M.B.Yuldasheva | |
| Biolog talabalarni kasbga yo'naltirilgan yondashuv orqali til o'qitish bo'yicha taklif | 298 |
| B.M.Qandov | |
| Global ekologik muammolar: shaxs dunyoqarashi va milliy qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar | 302 |
| O.T.Berkinov | |
| Kibermakonda mavjud o'ziga xos tahdidlar | 308 |
| I.Ismoilov | |
| Jinoyatga jazo tayinlashga oid ayrim xorijiy davlatlar tajribasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari | 311 |
| A.A.Sayitxonov | |
| Milliy qadriyatlar– ma'naviy tarbiyaning mafkuraviy asosi | 316 |
| Z.O.Muminova | |
| Tafakkur tarzi va jamiyat mafkuraviy tizimining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri | 320 |
| A.A.Isomiddinov | |
| Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-madaniy omillari | 324 |

MILLIY QADRIYATLAR– MA’NAVIY TARBIYANING MAFKURAVIY ASOSI
НАЦИОНАЛЬНЫЙ ЦЕННОСТИ - ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ДУХОВНОГО
ВОСПИТАНИЯ
NATIONAL VALUES - THE IDEOLOGICAL BASIS OF SPIRITUAL EDUCATION

Sayitxonov Akmalxon Axatjonovich¹

¹Sayitxonov Akmalxon Axatjonovich

– Farg‘ona davlat universiteti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Аннотация

Ushbu maqolada bizning kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni milliy va ma’naviy qadriyatlar asosida komil inson qilib tarbiyalash g‘oyalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Bugungi kunda, shiddatli davrda chinakkam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilish o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin. Shunday ekan, ota-onalar, ustoz-murabbiylar yoshlar tarbiyasiga bo‘lgan mas’uliyatni yo‘qotmasligimiz va beparvo bo‘lmasligimiz zarur.

Davlatning buyuk kelajagi, albatta yoshlarni chuqur bilimli va pokiza ahloq-odobli qilib tarbiyalash bilan bevosita bog‘liq ekanini yoddan chiqarmaslik lozim. Umuman olganda, xalq turmushining yaxshilanishi, rivojlanishi bilan bevosita aloqador bo‘lgan fan va madaniyat taraqqiyotining ta’lim-tarbiyasiz tasavvur etish mumkin emas. Bu ajdodlarimiz tomonidan isbot qilingan ilmiy-nazariy, falsafiy-tarbiyaviy haqiqatdir.

Аннотация

В данной статье научно анализируются идеи воспитания подрастающего поколения, за которым стоит наше будущее, как совершенной личности, основанной на национальных и духовных ценностях. Сегодня, в неспокойное время, только истинно духовный и просвещенный человек может знать цену человеку, осознавать свои национальные ценности, национальное самосознание, жить в свободном обществе, самоотверженно бороться за то, чтобы наша независимая страна заняла достойное место в мировом сообществе. Поэтому родители, педагоги-тренеры не должны терять ответственности за воспитание молодежи и не быть беспечными.

Не следует забывать, что великое будущее государства напрямую связано с воспитанием у молодежи глубоких знаний и чистых нравов. Вообще невозможно представить развитие науки и культуры, непосредственно связанных с улучшением и развитием жизни людей, без образования. Это научно-теоретическая, философско-просветительская истина, доказанная нашими предками.

Abstract

In this article, the ideas of educating the young generation, who are our future, as perfect human beings based on national and spiritual values, are scientifically analyzed. Today, in the turbulent times, only a truly spiritual and enlightened person can know the value of a person, realize his national values, national identity, live in a free society, and selflessly fight for our independent country to take its rightful place in the world community. Therefore, parents, teachers-coaches, it is necessary not to lose responsibility for education of young people and not to be negligent.

It should not be forgotten that the great future of the state is directly related to educating young people with deep knowledge and pure morals. In general, it is impossible to imagine the development of science and culture, which is directly related to the improvement and development of people's life, without education. This is a scientific-theoretical, philosophical-educational truth proved by our ancestors.

Kalit so‘zlar: Qadriyat, ma’naviyat, tarbiya, oilaviy qadriyat, milliy qadriyat, mafkura, milliy g‘oya, fuqarolik jamiyati.

Ключевые слова: Ценность, духовность, образование, семейная ценность, национальная ценность, идеология, национальная идея, гражданское общество

Key words: Value, spirituality, education, family value, national value, ideology, national idea, civil society.

KIRISH

Ma’lumki, bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviyat, ma’naviy tarbiya sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va uni yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya, mafkuralar tahsiridan saqlash va himoya qilish, ularda yuksak ma’naviy xislatlarni tarkib toptirish muxim ijtimoiy-pedagogik, muammolardan biri hisoblanadi. Zero, xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyshta hayot kechirayotgan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurish yo‘lida, azaliy qadriyatlarimizga tayanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan

davlatlar tajribasini hisobga olgan holda ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotgan sharoitda bu masalaning yanada dolzarbligi xammaga ma'lum bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Milliy istiqlol mafkurasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi. Xalqning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarning o'lmas merosidan oziqlanadi. Xalqning ishonch va e'tiqodi aks etgan adolat, haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalarida yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlash nazarda tutiladi. Shuningdek, jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Millati, tili va dinidan qat'iy nazar, mamlakatning har bir fuqarosi qalbida ona-Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi.

Insoniyat paydo bo'lishi bilan uning tili, urf-odatlarini, an'analari, dini, madaniyati, ezgulikni ifodalovchi axloqiy fazilatlarini vujudga kela boshlagan. Ularning mazmunida xalqning hayot tarzi, ruhiyati, ma'naviyati, madaniyati, turmush tarzi, o'y-xayollari aks etgan. Milliy qadriyat– millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Qadriyat atamasi arabcha “qadr” so'zidan olingan bo'lib, qimmatli, foydali degan ma'noni anglatadi. Qadriyat – bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan moddiy-madaniy, ma'naviy omillar yig'indisidir. Bizning mentalitetimizga xos bo'lgan milliy qadriyatlardan andisha, sabr-toqat, vazminlik, mulozamat, sertakalluflik, keksalarga hurmat-ehtirom, ijtimoiy hayotda bosiqlik qon-qonimizga singib ketgan. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek xalqi milliy, ma'naviy qadriyatlar va axloq-odobga bag'ishlangan maxsus teran ta'limotlarning merosxo'ridir. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-xaqoyiq” asarlari, Kaykovusning “Qobusnoma”, Burhoniddin Marg'inoniyning yetti kitobdan iborat “Hidoya”[1.326], Husayn Voiz Koshi-fiyning “Axloqi Muhsiniy” [2.34] nomli odob-axloq me'yorlarini batafsil yoritib bergan asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini, dolzarbligini yo'qotmagan. B.Ziyomhammadov o'zining “Komillikka eltuvchi kitob”[3.73]asarida “Qadriyat” so'ziga quyidagicha ta'rif beradi: “Kishini qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh yo konkret bir millat yoxud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlarini qadriyat deyiladi. “Moddiy qadriyatlar – kishilar moddiy ehtiyojlarini qondirib, o'ziga xos xususiyati va shakllariga ko'ra odamlarda alohida his-tuyg'u uyg'otuvchi moddiy narsalarga aytiladi. Ularga buyuk inshootlar, bog' va xiyobonlar, antiqa uy-ro'zg'or buyumlari, tarixiy qimmatga ega bo'lgan uy anjomlari, qurol-yarog', oziq-ovqat, shaxsiy buyumlar va shunga o'xshash narsalar kiradi. Qadriyatlar – umumbashariy, milliy va shaxsiy bo'lishi mumkin:

1) Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, umumbashariy abadiy qadriyatlardir;

2) Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, urf-odat va an'analari, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir;

3) Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e'tiqodi, umr ma'nosi, odobi, go'zalligi bilan bog'liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir [4.509]. X. Qodirova o'zining “Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat hayotidagi o'rni” nomli maqolasida: “O'zbekiston xalqi umum insoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi. Milliy qadriyatlar quyidagilardan iborat, deb quyidagilarni sanaydi:

1. Xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligi;
2. Xalq ongida ustuvor bo'lgan fikr – do'st va yaxshi qo'shni bo'lib, tinchlik va totuvlikda, yaqindan hamkorlikda yashash;
3. Oila, mahalla, el-yurt, Vatan tushunchalarini muqaddas bilish;
4. Ota-ona, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat-e'tibor ko'rsatish, butun jamiyatni hurmat qilish;
5. Millatning o'lmas ruhi, millat ma'naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat uyg'otish, uni sevish;
6. Kattalarga hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat-e'tibor, degan qoidaga amal qilish;
7. Ayol zotiga ehtirom ko'rsatish, ya'ni, muhabbat, go'zallik va nafosat timsoli bo'lgan ayolni qadrlash;

8. Sabr-toqat va mehnatsevarlik;
9. Halollik, mehr-oqibat [5.13]ni nazarda tutadi.

Bir qator olimlar tomonidan yozilgan “Shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari va vositalari” nomli kitobda O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirish yo‘li to‘rtta asosiy negizga asoslanadi:

1. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; 2. Xalqimiz ma’naviy saviyasini mustahkamlash va rivojlantirish; 3. Insonni o‘z imkoniyatlarini erkin namoyish qilishi 4. Vatanparvarlik, insonparvarlik, tolerantlik, [6.12] deb qayd etilgani ham aynan milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyaviy ishlarni yoshlar o‘rtasida olib borishda ko‘proq qanday yo‘nalishlarga e’tibor qaratish va targ‘ibot ishlarida mahalla, oila, jamoat, tarbiyaviy muassasalarning o‘rnini kuchaytirish zarurligini ko‘rish mumkin.

Mualliflar qadriyatlar va ularning turlariga quyidagicha yondoshganlar:

- Oilaviy qadriyat – bir oila uchun ma’lum bir ma’naviyat turi (masalan, tug‘ilgan kunni nishonlash);

- Milliy qadriyat – millatning asrlar mobaynida yaratgan ma’naviy boyliklari, noyob tarixiy obidalarini avaylab-asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish, rivojlantirish, hurmat bilan munosabatda bo‘lish, hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish, ma’naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish;

- Jamoa qadriyati – ma’lum bir mahallada, qishloqda, mehnat jamoasida biron ijtimoiy hodisa (ommaviy tadbirlar, masalan, hashar) urf bo‘lgan;

- Umuminsoniy qadriyat – jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o‘zida ifoda etadi [7. 16]Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma’naviyat, o‘z navbatida, Islom xalqlari ma’naviyati, Hindiston xalqlari ma’naviyati, Yevropa xalqlari ma’naviyati, Sharq xalqlari ma’naviyati yo‘nalishlari quyidagicha yoritilgan;

- Islom xalqlari ma’naviyati – arab xalqlari, forsiyzabon xalqlar, turkiy xalqlar;

- Yevropa xalqlari ma’naviyati– rus, ingliz, frantsuz ma’naviyati;

- Hindiston xalqlari ma’naviyati – oriya xalqlar ma’naviyati;

- Sharq xalqlari mahnaviyati – yapon ma’naviyati, xitoy ma’naviyati.

Qadriyatlarining xilma-xil shakllari, moddiy, ma’naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy, jamiyat hayotining sohalari bo‘yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy, va boshqalar. Jumladan, milliy qadriyat – millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Umuminsoniy qadriyatlar – jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o‘zida ifoda etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi davrda milliy va ma’naviy qadriyatlarining inson va jamiyat hayotidagi hamiyatining oshib borishi, yoshlar kamolotidagi o‘rni barchamiz uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy-ma’naviy, madaniy, ta’lim-tarbiya, axloq kabi qadriyatlar komil inson tarbiyasidagi o‘rni juda ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda yoshlar tarbiyasini ma’naviy qadriyat va milliy istiqlol mafkurasi tamoyillari bilan uyg‘unlikda olib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning o‘ziga xos udumlari, uning yuksak axloqiy fazilatlarini ma’naviyatimiz o‘zagidir. Barchamizga mahlumki, bugungi kunda milliy qadriyatlarni tiklash, takomillashtirish, o‘zligimizni bilish, ma’naviy qadriyatlar tizimini yaratish umummiliy, dolzarb vazifalardan biridir.

Yuksak ma’naviy qadriyatlarni milliy g‘oya va mafkura bilan uyg‘unlikda olib borishda umuminsoniy qadriyatlar, ta’lim-tarbiya, ilm-fan va odob-axloqning o‘rni o‘zgachadir. Jumladan, axloqiy tarbiya va axloqiy dunyoqarash o‘z yaqinlari, Vatani oldidagi burch va javobgarlik hissini shakllantiradi. Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad muddaolari, manfaatlarini, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o‘zida mujassam etgan g‘oyalar tizimidir. Uning falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlari bor. Mafkuraning maqsadi – insonlarni muayyan g‘oyaga ishontirish, bu yo‘lda ma’naviy-ruhiy rag‘batlantirish, insonlarni g‘oyaviy tarbiyalash yo‘llarini uyushtirish, insonlarda g‘oyaviy immunitetni shakllantirishga safarbar etishdir.

Qadriyat – uning mohiyati va mazmuni, milliy qadriyatlarining namoyon bo‘lish shakllarini va ularning asosiy xususiyatlarini o‘z ichiga qamrab olgan. Shuningdek, qadriyat mavzularida O‘zbekiston tarixini sharqona qadrlash, ularga vatanparvarlik ruhida munosabat bildirish, yoshlar

FALSAFA

ongida istiqloq va qadriyatlarga nisbatan qarashning ijobiy tomonga o'zgarishi, milliy qadriyatlarni asrash va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligini ta'minlash juda muhimdir.

XULOSA

Yosh avlodni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, allomalarning o'giti, dono so'zlari, fikrlarini qadrlash, o'rganish, hayotda qo'llash yoshlarni fikr va dunyoqarashini kengaytiradi. Bugungi yoshlar – kelajak poydevori. Shunday ekan, ularni har tomonlama yetuk, komil, vatanparvar, yurt tinchligi va ravnaqi yo'lida fidokor bo'ladigan farzandlar qilib tarbiyalash zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan dahvat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan [8.486] " – degan fikrlari barchamizga dasturi lamal bo'lishi zarur. Ta'kidlash joizki, milliy qadriyatlar qatori, milliy istiqloq mafkurasining vazifasi mustaqil tafakkur sohibi, ma'naviy barkamol, komil insonni shakllantirish, jamiyatni yot va begona g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ko'p millatli o'zbekistonliklar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, qonunni hurmat qilish, el-yurt uchun fidoyilik, iymon-e'tiqod, halollik kabi yuksak ma'naviy sifatlarni shakllantirish, millatimiz shahnini butun dunyoda himoya qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Marg'inoniy B. "Al-Hidoya", 1-jild. T; 2001; Yana qarang "Hidoya", O'zME, 11-jild.T; 2005.–326-bet (Marginani B. "Al-Hidaya", volume 1. T; 2001; See also "Hidaya", UzME, vol. 11.T; 2005.–Page 326)
2. Koshifiy V.H. Axloqi Muhsiniy. – T; O'zME, 2010. –34-bet (Koshifi V.H. Morality is Muhsini. – T; UzME, 2010. -34 p)
3. Ziyomhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. – T; "TURON-IQBOL" nashriyoti, 2006.–73-bet (Ziyomhammadov B. The perfect book. – T; "TURON-IQBOL" publishing house, 2006.-73 p)
4. Tarbiya entsiklopediyasi. –T; "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2010.–509-bet (Encyclopedia of education. -T; "National Encyclopedia of Uzbekistan", 2010.-509 p)
5. Jalolov H. Oila, mahalla va maktab hamkorligi.Tarbiya. №2-son.2006.–13-bet (Jalolov H. Family, neighborhood and school cooperation. Education. Issue No. 2. 2006. - Page 13)
6. Tillaeva G., Yusupov Q., Boboev N., Xaldibekova F.,Yusupov A. Shaxs ma'naviyatini shakllantirish omillari va vositalari. T: "Falsafa va huquq instituti" 2009.–12-bet (Tillaeva G., Yusupov Q., Boboev N., Xaldibekova F., Yusupov A. Factors and means of personal spirituality formation. T: "Institute of Philosophy and Law" 2009.-12 p)
7. Tillaeva G., Yusupov Q., Boboev N., Xaldibekova F., Yusupov A. Shaxs ma'naviyatini shakllantirish omillari va vositalari. T: "Falsafa va xuquq instituti" 2009.–16-bet (Tillaeva G., Yusupov Q., Boboev N., Xaldibekova F., Yusupov A. Factors and means of personal spirituality formation. T: "Institute of Philosophy and Law" 2009.-16 p)
8. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qathiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O'zbekiston", 2016. –486-bet (Shavkat Mirziyoyev. We will persistently continue our path of national development and raise it to a new level. "Uzbekistan", 2016. - page 486)